

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

QAYG‘USIZ ABDOLNING “GULISTON” ASARI VA UNDAGI TASAVVUFIY TUSHUNCHALAR QAMROVI

Shalola Safartosheva Aktam qizi,
ChDPU 2-bosqich magistranti
E-mail: [shalolasafartosheva.@gmail.com](mailto:shalolasafartosheva@gmail.com)

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc) Adiba Rahmonova Davlatova

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk tasavvuf adabiyotining yirik vakili Qayg‘usiz Abdol va uning “Guliston” asari borasida, unda uchraydigan olamning va odamning yaratilishi, tasavvufiy tushunchalar haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: Qayg‘usiz Abdol, “Guliston”, tasavvuf, tasavvufiy istilohlar, Vahdatul vujud, Odam Ato, Momo Havo va payg‘ambar.

Annotation: This article discusses the work of Kaygusiz Abdol, a prominent representative of Turkish mystical literature, and his work "Gulistan," the creation of the universe and man, and the mystical concepts found in it.

Key words: Kaygusiz Abdol, "Gulistan", Sufism, Sufi terms, Unity of Being, Adam, Eve and the Prophet.

Tasavvuf ham birlik va borliq, yashash anglami, nafsni tarbiyalash kabi masalalarni qamrab olib, VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan, o‘zining tadrijiy taraqqiyotiga, keng maydoniga ega ta‘limotdir. Mutasavvuf allomalar ijodini o‘rganish, chuqur anglash ham insonning o‘zligini tanish yo‘lidagi bir odim hisoblanadi. Hali o‘zbek kitobxonlarining ko‘pchiligi tanib ulgurmagan Qayg‘usiz Abdol ham mana shunday turk tasavvuf vakillaridan biri. Turk mutasavvufchi olimi Abdurahmon Go‘zal va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan uning hayoti va ijodi batafsil o‘rganilgan, tadqiq qilingan. Qayg‘usiz Abdolning(1341-1444) asl ismi Alovuddin G‘aybiy bo‘lib, Abdol Musoning Janubiy Ozarbayjondan, Xoy shahridan birgalikda kelgan darveshlardan biri. Otasi Husamiddin Mahmud bo‘lganligi aytiladi. Hayoti haqidagi ma‘lumotlar o‘limidan taxminan bir yarim asrdan so‘ng ba‘zi tarixiy hikoyalarda uchraydi. Nasl-nasabiga ko‘ra u bekning o‘g‘li bo‘lgan. Lekin moddiy boyliklarning va hashamatli hayotning o‘rniga darveshlikni tanlaydi. Uning ustozlari XIV asrda yashagan Ahmad Yassaviy darveshlaridan biri – Abdol Muso edi. Qayg‘usiz Abdolning hayoti va sayohatlari haqida aniq manbalar deyarli yo‘q. Unga tegishli ma‘lumotlar tarixiy hikoyalarda va o‘zining asarlarida uchraydi. Asarlaridan uning ko‘p joylarga sayohat qilganini bilish mumkin. Hayotiga oid ma‘lumotlarning aksariyati Bektoshiylik afsonalariga asoslangan.

Aruz va barmoq(bo‘g‘inli tizim) vaznida she‘rlar bitgan Qayg‘usiz Abdolning nasrda yozilgan asarlari ham talaygina. Uning aruzda yozilgan she‘rlari “Devon”ga

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

jamlangan. Aksariyat she’rlarida “Qayg‘usiz” taxallusini qo‘llagan shoir ba’zi o‘rinlarda “Saroyi” va “G‘aybiy” nomlarini ham qo‘llaydi. Qayg‘usiz nomini olgan boshqa shoirlarning ham borligi uning ayrim asarlari boshqa Qayg‘usizga tegishli bo‘lishi mumkin degan shubhani ham uyg‘otishi tabiiy. U o‘z asarlaridan birida 1397-1398-yillarda tug‘ilganini aytadi. Uning asarlaridan ma’lum bo‘lishicha, XIV asrda yashagan shoir Anado‘lu va Rum elining ko‘p joylarini kezib, yaxshi ta’lim olgan. Barmoq vaznidagi she’rlarida va nasriy asarlarida go‘zal turk tildan foydalangan. Ijodida tasavvufga oid she’rlari bilan bir qatorda satirik va yumoristik ruhdagi parchalar(turk tilida shathiyalardeb yuritiladi) ham muhim o‘rin tutadi.

Qayg‘usiz Abdolning hajmi yirik masnaviy tarzida yozilgan asarlaridan biri **“Guliston”** asaridir. “Gul bog‘i” ma’nosida kelgan asar nomi o‘z ichida ramziy ma’nolarni tashiydi: tasavvufiy yo‘lovchilik, yo‘l mushkulotlari va so‘nggida kishining yetishgan ma’rifatiga ishora qiladi. Ushbu asarda tasavvuf ta’limotining bosh masalalari bo‘lgan: Allohning birligi, Vahdatul-vujud maqomatiga erishishning yo‘llari, insonning yaratilishdan maqsadi va nafs tarbiyasi haqida so‘z boradi. Har narsaning lomakon – makonsizlik olamidan boshlanishini va darajama daraja yuksalishini, lomakon Allohdan boshqa borlikning yo‘qligini, koinotning hanuz yaratilmaganligini, Allohning zoti ichinda har sifatning yashirin ekanligini ta’kidlaydi. Asarning to‘rt nusxasi mavjud bo‘lib, Marburg nusxasi so‘ngida asarning 3700 bayt ekanligi qayd etilgan. Kirish qismlari to‘liq bo‘lmagan bu nusxada 2140 bayt saqlanib qolgan. Agiografik xarakterdagi asar “Lomakon”(makonsizlik)ni, boqiylikdagi “Vahdatul vujud”ni tasvirlashdan boshlanadi. Borliq va Hazrati Odam alayhissalomning yaratilishi haqida uzoq hikoya qiladi. Butun olamlarning yaratilish sababi Muhammad Mustafo ekanligi, Alloh dastlab Muhammad Mustafo nurini yaratganligi haqida aytib Uning joni(ruhi) jonlarning ilkidir, jahon Mustafoning joni ichida sirdir, Alloh bu javharga boqganda javharga jon kirdi-yu jahon maydonga keldi deydi.

Bundan keyin muallif Iblisning Odam alayhissalomga sajda uchun bo‘y egmaganligi, Odam alayhissalomni Jannat ahliga e’lon qilinishi, Momo Havoning yaratilishi, shaytonning ularni aldab ta’qiqlangan bug‘doydan yedirishi va shu tufayli Odam Ato bilan Momo Havoning Jannatdan quvilishi kabi hodisotlarni anglatadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi anbiyolar qissalarida, diniy-tarixiy asarlarda uchramaydigan yoki uchraydiganlaridan farq qiladigan fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Odam alahissalomning Shomdagi bir daraga borishi, Jannatda yegan meva donlarini u yerga to‘kib, sel kelib ularni dunyoga yoyshi-yu. Yer yuzidagi butun yemishlar bundan paydo bo‘lshi, Odam Atoning Jannatdan olgan anjir yaprog‘ining

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sutidan paxta yaratilgani, Odam Ato ila Momo Havo paxtadan liboslar kiygani, Jabroil Odamga ho‘kiz boqishni va bug‘doy yetishtirishni o‘rgatganini, Odam Atoning qilgan har narsasi insonlar uchun odatga aylanganini aytadi.

Tasavvufda ta’limotida alohida ta’riflar bilan keladigan to‘rt unsurga ham murojaat etib: “Odam olamning oyinasidir. Har makon oyina ichida ko‘rinur. Alloh Odamda oyina bo‘ldi. Odamni yuziga parda yopdi. Pardaning asli suv, tuproq, otash, va yeldir, faqat parda ichidagining kim ekaligini bilmoq lozim” – deya inson asli to‘rt unsurdan birining tabiatiga moyil ekanini bildiradi. Bundan keyin Nuh To‘foni, Hazrati Ibrohimning Namrud bilan bahsi, Muso payg‘ambar va Firavn, Hazrati Dovud bilan Hazrati Isodan qisqacha bahs etiladi, so‘ngra Hazrati Muhammadga keladi. Hazrati Muhammadning nuri ila koinotning to‘lishini, butga topinganlarning holi xarob bo‘lishini anglatgandan keyin Uning bilan payg‘ambarlar davrining tugaganini ifoda etadi. Nubuvvat davridan keyin valiyat davri boshlanar deydi. Payg‘ambardan keyin zuhur etgan shayxlar ma’no sirlarini kashf etib xalqqa Haq yo‘lini ko‘rsatishini, sabrni va qanoatni odat etishini, achchiq so‘zlarga taxammul etib dunyo uchun andisha chekmasliklarini baytlarda keltiradi. Ular ham ketgach, ularning “arkoni” qoldi. Darveshlar esa ulardan nishonadir deydi. Bu yergacha bo‘lgan qism “Guliston”ning kirish qismidir. Asarning bundan keyingi asosiy qismida aniq bir mavzu haqida so‘z ketmaydi. Qayg‘usiz Abdol mavzuni darveshlarga va tasavvufga olib kelish uchun yuqorida ko‘rib chiqqanimiz kirish qismini keltirmish kabi go‘yo. Bundan keyingi o‘rinlarda tasavvuf va darveshlik bilan bog‘liq qarashlar va tadbirlarga uzundan uzun ta’riflar ketadi. Ko‘p o‘rinlarda nasihat uslubi(didaktika) va sodda ifodalar bilan tasavvufning turli mavzulari, tushunchalari haqida fikrlar, bilgilar bayon etiladi.

Avval boshida aytganimizdek, asar tasavvufiy istilohlar bilan o‘rangan. Quyida uning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz. Tasavvuf ta’limotlari aqlni chetlab o‘tmasa-da, uning imkoniyatlarini zohiriy jarayonlarda shunchaki bilish bilan chegaralab qo‘yadi. Aql – tasavvuf vakillarining nuqtai nazariga ko‘ra, ilohiy bir nur. Muallif ikki xil aql borligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadi:

Yer-u ko‘k xazina ichinda sir edi,
Ikkilik yo‘q edi, hamon bir edi.

Yerda, ko‘kda jumla tartib kulli hol,
Oshkor emasdi hanuz moh-u sol(oy-u yil).

Aqli kull hanuz bir edi zot ila

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Nafsi kull-da pinhon edi ham bila.¹

Yer va ko‘k ham yashirin xazina edi, Undan ayro hech borliq yo‘q edi, aqli kull ham Uning bilan, nafsi kull ham pinhon edi deydi.

1. Aqli kull-ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo‘lib, tangrining faol tajalliysidan iborat. Ilk marotaba Allohdan dunyoga kelgan bu aql “Aqli avval” yoki “Ruhi a’zam”, deb yuritiladi. Shuningdek, bu “Aqli kull” ni tasavvuf namoyandalari yana “Haqiqati Muhammadiyya” deb ham atashgan. “Aqli kull” dan “Nafsi kull” maydonga kelganki, u “Lavha mahfuz” deb nomlangan.

2. Aqli juz (aqli majoz) – insonning hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli. Aqli juz ikki qismga ajratilgan:

1. Aqli maod – insonni oxiratdan ogoh qiladigan aql.

2. Aqli maosh – hayotni tushunishga xizmat qiladigan aql. Aqli maod – iymon sohiblariga, aqli maosh esa – barcha kishilar uchun xos deb qaralgan.²

Yana bir turli hikoyati vasfi hol

Sharh etayin tingla, ey sohibi kamol.

Vahdat yuzundan ochayin niqobni

Ko‘rsatayin orifga ming turli bobni.³

tarzida Vahdat va Vahdatul- vujud ta’limoti bilan bog‘liq tushunchalarini keltirib o‘tadi. Asarda Hazrati Odamning yaratilishi, undan keyin kelgan payg‘ambarlarning hikoyalari, tasavvufiy tushunchalar va diniy-ma’rifiy xusuiyatga ega bo‘lgan tasavvufiy hayot tarzining o‘ziga xosliklari yoritilgan. Mavzularning bunday rang-barang qilib berilishiga qaramay, ularning barchasini “Vahdatul-vujud” tushunchasi birlashtirib turadi, asar boshidan oxirigacha har faslida Vahdat tushunchasi tilga olinadi. Yana bir o‘rinda go‘zal ta’rif-tavsif ketadi:

Jon podshohdir, yuzangda tan niqob,

¹ Yer gök hazine içinde sır idi
İkilik yoğidi hemân bir idi
Yerde gökde cümle tertîb küll-i hâl
Âşikâr değildi henüz mâh u sâl
Akl-ı kül henüz bir idi zât ile
Nefs-i kül de pinhân idi hem bile
167/56:31-333

² Bu haqda qarang: R.Ahmedov. Abu Bakr Muhammad Zakariyo Roziy ta’limotida aql // FALSAFA.
<http://journalism.nuu.uz>

³ Yine bir türlü hikâyet-i vâsf-ı hâl
Şerh edeyim dinle ey sâhib-kemâl
Vahdet yüzünden açayım nikâbı
Göstereyim ‘ârife bin türlü bâbı

Eski türk edebiyati araştırmaları dergisi. [journal of old turkish literature researches]. E-issn: 2651-3013

Doi number: 10.58659/estad.1492171. Cilt: 7 Sayı: 2 Haziran 2024 ss. 607-615. Kaygusuz abdâl’in gülistân’ında vahdet-i vücüt düşüncesi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Niqob ichinda ayondir ofitob.⁴

Har tanda jon podshohdir, bizga ko‘z bilan ko‘ringani tanamiz esa oddiy niqob. Muhimi niqob ostidagi, yashirin oftob, yani ilohiy nur. Har vujudda mavjud bo‘lgan yuz va go‘zallik, har ko‘ngilda mavjlangan tug‘yon va istaklar ilohiy borlikning tajallisidir. Qayg‘usiz Abdolga ko‘ra, insoni komilning sifati darvesh, zoti Haqdir, u har doim Haq ila birliktadir.

Qayg‘usiz asarda xulosa o‘rnida shunday fikrlarni keltiradi: *“Endi Vahdatning ustidagi pardani ochib sizga Vahdatni anglatayin. Javharning qiymatini sarrof qanday bilsa, jon ichida yashirin bo‘lgan xazinani ham ahli dil bo‘lganlar shunday bilar. Mening so‘zimni ham shu kabi aqllilar anglar. Haq menga nimani so‘zlatasa, men-da sizlarga bu xabarni vasf etarman. Avval lomakon nimadir, uni anglatayin. Shunday bir zamon ediki, koinot yo‘q edi. Har sifat Zot ichida yashirindi. Inson vujudi yo‘q edi. Olam va inson hammasi bir edi”*. Vahdat maqomiga yetmoqning o‘zi bir sharafdur. Muallif asaridan maqsadi o‘quvchilarni shu sharafga yetishtirmoq, husnkor baytlar ila Odam Atodan Muhammad (s.a.v.)gacha hikoyalar so‘zlamoq, Insonning yaratilishidan murod ne ekanini eslatmoq, borliqni anglamoq va undan O‘zini topmoq, birlikni his qilmoq bo‘lsa ajab emas.

Guliston deganda ilk xayolga keladigani Sa‘diy Sheroziyning(1210-1292) “Guliston”idir. Bu asar Sayfi Saroyi tomonidan 1391-yilda o‘z nomi bilan qipchoq turkchasiga tarjima qilinadi. Shunga ko‘ra, Qayg‘usiz Sheroziydan ilhomlanganligi mumkin deya olamiz. Lekin Qayg‘usizning “Guliston”i Sheroziyning mavzusi bilan, sjuyetlari va adabiy estetikasi bilan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurrahman Güzel, Ali Torun (2021). Türk halk edebiyatı el kitabı, Ankara: (483-485.b). Akçağ Yayınları.
2. Azimova O‘. (2017). Noma janrining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, Farg‘ona.
3. Dilobar Davlatova Ergashevna. (2024). NOMA JANRI ASOSIDA YARATILGAN ASARLAR TAHLILI VOLUME5, International journal of scientific frsearchers, ISSUE1.
4. Ethem CEBECİOĞLU, (2009). *Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü*, İstanbul: (5.b). Ağaç Yayınları.
5. Rahime ÖZDEM, KAYGUSUZ ABDALIN VÜCÛD-NÂME ADLI ESERİNİN TASAVVUFİ TAHLİLİ, Temel İslam Bilimleri Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi. (2018). Antalya.
6. Rahmonov N. (2017). O‘zbek adabiyotitarixi.–T.:(94-b). Sano-standart.
7. Süleyman ULUDAĞ, (1988). “Ahadiyet”, Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi, c. I, s.s. 484.
8. Prof.Dr. Abdurrahmon Go‘zal, Turk xalq she‘riyati.

⁴ Cân pâdişâhdır yüzünde ten nikâb
Nikâb içinde ‘ayândır âfitâb (167/115:1263)

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

9. Бертельс Е.Эю Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1995. С. 54
10. Najmiddin Komilov, Tasavvuf. T.: “Movaraunnahr – O‘zbekiston”, 2009.
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Kaygusuz_Abdal
12. <https://www.turkedebiyati.org/kaygusuz-abdal/>
13. <https://www.turkedebiyati.org/kaygusuz-abdal/>
14. <https://aregem.ktb.gov.tr/TR-12787/kaygusuz-abdal-1341--1444-.html>
15. Prof. Abdurrahmon Go‘zal. Alovuddin G‘aybiy Qayg‘usiz Abdal(hayoti va asarlari), Anqara, 2023.